JIZZAX VILOYATI JIZZAX SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2025-yil 3-fevral | 24-3-55-Q/25 | Jizzax shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-yanvardagi “Ko‘p kvartirali uyning yerto‘lasidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 17-sonli hamda viloyat hokimining 2025-yil 30-yanvardagi 50-3-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-yanvardagi 17-sonli hamda viloyat hokimining 2025-yil 30-yanvardagi 50-3-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash, shuningdek respublikaning barcha hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish, ko‘p kvartirali uylarning yerto‘la qismlaridan foydalangan holda, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda ushbu jarayonni yanada tartibga solish, mavjud ko‘p kvartirali uylarning yerto‘la qismlari hisobini yuritish, ko‘p kvartirali uylarning boshqaruv organlari tomonidan uylarning yerto‘la qismlarini ijaraga berishda to‘lanadigan majburiy badal va to‘lovlarni amalga oshirish jarayoni shaffof bo‘lishini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-yanvardagi 17-sonli hamda viloyat hokimining 2025-yil 30-yanvardagi 50-3-0-Q/25-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan: Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi 648-sonli qarori bilan tasdiqlangan ko‘p kvartirali uyning yerto‘lasidan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga quyidagicha:

Ko‘p kvartirali uylarning yerto‘lalari jismoniy va yuridik shaxslarga foydalanishga berilganda, ijara uchun to‘lovlari hisobini “Mening uyim” billing tizimida yuritish; ko‘p kvartirali uyning yerto‘lasini ijaraga berishda ko‘p kvartirali uydagi umumiy mol-mulkka bo‘lgan huquqlarni ushbu joylar mulkdorlarining nomiga

davlat ro‘yxatidan o‘tkazish; Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori ilovasiga asosan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (V.Mirzayev): Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Jizzax shahar filiali (B.Normatov) bilan birgalikda, “UZCAD” va “Mening uyim” tizimlarini integratsiya qilgan holda, ko‘p kvartirali uylardagi joylar mulkdorlarining nomiga davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan umumiy mol-mulk va har bir ko‘p kvartirali uy joylashgan va unga tutash yer uchastkalari haqidagi;

Soliq inspeksiyasi bilan birgalikda Soliq inspeksiyasining tegishli elektron tizimini “Mening uyim” billing tizimiga integratsiya qilish orqali boshqarish organlarining umumiy mol-mulkdan foydalanuvchilari bilan ijaraga yoki tekin foydalanishga berish to‘g‘risida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ma’lumotlar almashinuvini yo‘lga qo‘ysin.

Bunda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Jizzax viloyati boshqarmasi shahar filiali (B.Normatov) 2025-yil yakuniga qadar ko‘p kvartirali uylarning umumiy mol-mulk va yerto‘la haqidagi elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirsin va “Mening uyim” billing tizimiga kiritilishini ta’minlasin.

4. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (V.Mirzayev) manfaatdor idoralar, shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari X.Onalboyev zimmasiga yuklansin.

Shahar hokimi **K.Xolmurodov**